


QURILISH ISHLARI

2019- yil (yanvar-dekabr)

2019 yilning yanvar-dekabr oylarida Qashqadaryo viloyatida jami 4 665,4 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 110,2 % ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari hajmi

(ulushi, mlrd.so'm)




Joriy davrda jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 664,3 mlrd. so`mni tashkil etdi. O`tgan yilning mos davri bilan solishtirganda 11,1 % ga ko`p ishlar bajarilgan bo`lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi o`tgan yildagi ko`rsatkich darajasidan 2,7 punktga kamaygan.

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi joriy davrda qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan keskin oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 63,3 %i to`g`ri kelib, o`tgan yilning mos davridagi ko`rsatkichga nisbatan 6,2 punktga ko`paydi. Shuningdek, ular hissasiga to`g`ri kelgan qurilish ishlari hajmi o`tgan yilning mos davriga nisbatan 121,7 % ni tashkil qilgan holda 2 952,7 mlrd. so`m miqdorida qayd etildi.

Yirik pudrat tashkilotlari

- o'sish sur'ati - 92,2 %


- ulushi -



Kichik korxona va mikrofirmalar

- o'sish sur'ati - 121,7 %


- ulushi -



Norasmiy sektor

- o'sish sur'ati - 96,9 %


- ulushi -




Norasmiy sektor hissasiga to`g`ri kelgan qurilish ishlari ulushi o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan 4,2 punktga kamayib, 22,5 % ni tashkil etdi va 1048,4 mlrd. so`m miqdorida qayd etildi. O`tgan yilning mos davridagi hajm bilan solishtirganda 96,9 % ni tashkil etgani kuzatildi.

Davlat va nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar bo'yicha qurilish ishlari

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 238,0 mlrd. so`m yoki 2018 yilning yanvar-dekabriga nisbatan 117,0 % qurilish ishlari bajarildi, nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan esa 4427,4 mlrd. so`m qurilish ishlari bajarilib, o'sish sura'ti 118,1 % ni tashkil etdi. Ularning viloyatdagi ulushlari mos ravishda 5,1 % va 94,9 % ni tashkil etdi.



Umumiy hajmdan yangi qurilish,rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari



Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurish bo`yicha bajarilgan. Jami qurilish ishlarining 74,4 %i yoki 3414,0 mlrd. so`m qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

Yirik qurilish tashkilotlari bo`yicha yangi qurilish hisobidan 242,8 mlrd. so`m ishlar bajarilib, o`tgan yilning mos davriga nisbatan 165,5 % tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan 2218,0 mlrd. so`m yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 147,3 % yangi qurilish ishlari bo`yicha ishlar bajarildi.

Norasmiy sektor hissasiga 953,2 mlrd. so`m yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 87,9 % yangi qurilish bo`yicha ishlar bajarildi.

Hududlar bo'yicha qurilish ishlari


(2019 yil yanvar-dekabr)

(mld. so'm)

	Qurilish ishlari hajmi	O'tgan yilga nisbatan, foizda	Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnikaviy qayta quollantirish
Qashqadaryo viloyati	4665,4	110,2	3414,0
shaharlar:			
Qarshi	1364,5	117,5	1000,3
Shahrisabz	258,3	112,6	198,0
tumanlar:			
G'uzor	169,8	105,3	116,1
Dehqonobod	129,6	104,1	99,0
Qamashi	129,1	106,8	78,5
Qarshi	415,5	106,5	344,8
Koson	480,8	109,7	334,6
Kitob	320,4	109,6	252,6
Mirishkor	139,0	104,7	78,5
Muborak	244,2	109,4	163,9
Nishon	106,4	104,2	75,1
Kasbi	163,6	105,2	112,7
Chiroqchi	320,4	106,0	249,2
Shahrisabz	140,4	107,2	116,1
Yakkabog'	283,4	106,1	194,6

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari

(jamiga nisbatan % da)




Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 2,9 % ni yoki 100,4 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,6 % punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 9,4 % punktga ko'payib, 69,4 % ni yoki 2419,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Norasmiy sektoring ulushi esa o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 7,8 % punktga kamayib, 953,2 mlrd. so'mni yoki 27,7 % ni tashkil etdi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

(jamiga nisbatan % da)



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o'tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan 15,2 % punktga kamaydi va 54,8 % ni tashkil etdi. Qolgan 45,2 % kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to`g`ri kelib, o'tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan 15,2 % punktga ko'paydi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

(2019 yil yanvar-dekabr)

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	shu jumladan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha:		
		binolar va inshootlar qurilishi	fuqarolik qurilish ob'ektlari	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Qashqadaryo viloyati	4665,4	3473,1	569,5	622,8
shaharlar:				
Qarshi	1364,5	1015,8	166,6	182,1
Shahrisabz	258,3	192,3	31,5	34,5
tumanlar:				
G'uzor	169,8	126,4	20,7	22,7
Dehqonobod	129,6	96,5	15,8	17,3
Qamashi	129,1	96,1	15,8	17,2
Qarshi	415,5	309,3	50,7	55,5
Koson	480,8	357,9	58,7	64,2
Kitob	320,4	238,5	39,1	42,8
Mirishkor	139,0	103,5	17,0	18,5
Muborak	244,2	181,8	29,8	32,6
Nishon	106,4	79,2	13,0	14,2
Kasbi	163,6	121,8	20,0	21,8
Chiroqchi	320,4	238,5	39,1	42,8
Shahrisabz	140,4	104,5	17,1	18,8
Yakkabog'	283,4	211,0	34,6	37,8

Hududlar bo'yicha qurilish ishlarining o'sish sur'ati

(o'tgan yilning shu davriga nisbatan, % da)



Hududlar kesimida eng yuqori o'sish sur'atlari bilan bajarilgan qurilish ishlari

Qarshi shahri (117,5 %):

- Qarshi shahridagi "Makro" gipermarketining qurilishi;
- "MDF" eshiklari ishlab chiqaradigan korxonanining qurilishi;
- Jismoniy shaxslar tomonidan turar joy va noturar ob'ektlarning qurilishi.

Shahrisabz shahri (112,6 %):

- "Dekorativ panellar" ishlab chiqaradigan korxonaning qurilishi ;
- "Gidropnika" usulida issiqxonaning qurilishi;
- "KOIKA" o'quv markazining rekonstruksiya qilinishi;

Koson tumani (109,7 %):

- "Koson Neft Gaz Qidiruv Ekspedisiyasi" mas'uliyati cheklangan jamiyatni tomonidan qidiruv burg'ulash ishlarining olib borilishi ;
- Neft va gaz uskunalarini ishlab chiqarish va ta'mirlashga mo'ljallangan sex qurilishi.

Kitob tumani (109,6 %):



- Cement ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan " Qarshi Conch Cement " MCHJ ning qurilishi ;
- Yangiobod massivida arzonlashtirilgan ko'p qavatli turar joylarning qurilishi;
- "Tegirmon va omuxta yem" uskunalarini ishlab chiqaradigan zavodning qurilishi;

Muborak tumani (109,4 %):

- cement va granula ishlab chiqaradigan zavodning qurilishi;
- oltingugurtdan mineral o'gitlarni ishlab chiqaradigan zavodning qurilishi;
- "Pishiq g'isht " ishlab chiqaradigan zavodning qurilishi.

Hududlar bo'yicha qurilish ishlari

(jamiga nisbatan % da)



Joriy davrda ham jami qurilish ishlaringin katta qismi kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri keldi. Ular tomonidan bajarilgan qurilish ishlari jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 63,3 % ni tashkil etdi. Qurilish ishlari hajmida kichik korxona va mikrofirmalarning nisbatan yuqori ulushi Qarshi, Nishon tumanlarida

va Qarshi shahrida qayd etildi. Kichik korxona va mikrofirmalarning eng past ulushi esa Koson hamda Dehqonobod tumaniga to'g'ri kelmoqda. Norasmiy sektor hissasiga jami qurilish ishlarining 22,5 %i to'g'ri kelmoqda. Qurilish ishlari hajmida norasmiy sektoring yuqori ulushi Dehqonobod (55,6 %) hamda G'uzor (52,3 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.



**Qashqadaryo viloyat statistika boshqarmasi
Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo'limi**

Nashr uchun mas'ul:

A.Isaev

Aloqa telefoni:

(75) 221-32-47